

## MA'NAVIY TARAQQIYOT: BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING IJTIMOIY- FALSAFIY MEZONARI

*Maxmut Mamatov, Shahrisabz davlat pedagogika instituti sirtqi  
bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari doktori, professor vazifasini  
bajaruvchi*

## ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ: СОЦИАЛЬНО- ФИЛОСОФСКИЕ КРИТЕРИИ ОБРАЗОВАНИЯ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ

*Махмут Маматов, Шахрисабзский государственный  
педагогический институт, заведующий заочным  
отделением, доктор философских наук, и.о. профессора*

## SPIRITUAL DEVELOPMENT: SOCIAL AND PHILOSOPHICAL CRITERIA FOR EDUCATION OF A PERFECT GENERATION

*Makhmut Mamatov, Shakhrisabz State Pedagogical Institute,  
head of the correspondence department, Doctor of Philosophy,  
acting. professor*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyatning ma’naviy rivojlanish strategiyasida muayyan davr va jamiyatga xos belgilari, davlat siyosati bilan bog‘liq xilma-xil xususiyatlar va inson kamoloti bilan bog‘liq turlicha namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy jihatlar, aholi, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyatini rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan. Bunday belgilari va o‘ziga xos jihatlar ushbu masalalarga doir tushunchalarining turli xususiyatlariiga ta’sir ko‘rsatadigan falsafiy tamoyillar uchun umumiylar mezon va tayanch omillar bo‘lib hisoblanadi. Uning jamiyatdagi zamонавији тараққијоти амалий аҳамияти асослаб берилган ma’naviy tarbiyaning rivoji nuqtayi nazaridan fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** jamiyat, ma’naviyat, rivojlanish, strategiya, milliy, diniy, tarbiyaviy, qadriyat, yoshlar, g‘oya, taraqqiyot, istiqbol, muammo, ilmiy tadqiqot.

**Annotation:** It is discussed that philosophical, cultural and educational aspects that manifest themselves in different ways in the strategy of spiritual development of society in a certain period, various features associated with state policy and the development of man and population, especially analyzing the processes of development of the psyche and mood of youth in this article. Such features and specific aspects are general criteria and basic factors of philosophical principles that influence various features of concepts related to these issues. Ideas are presented from the point of view of the development of spiritual education, based on the practical significance of its modern development in society.

**Key words:** society, spirituality, development, strategy, national, religious, educational, value, youth, idea, development, perspective, problem, scientific research.

**Аннотация:** В данной статье анализируются социально-философские, культурно-просветительские аспекты процессов развития психики и настроений населения, особенно молодежи, по-разному проявляющиеся в стратегии духовного развития общества, характерные для конкретного периода и общества, различные особенности, связанные с государственной политикой и человеческим совершенствованием. Такие признаки и специфические аспекты являются общими критериями и



<https://orcid.org/0009-0008-8748-2466>

e-mail: [mmamatov@shdpi.uz](mailto:mmamatov@shdpi.uz)

базовыми факторами философских принципов, которые влияют на различные особенности понятий, связанных с этими вопросами. Приводятся идеи с точки зрения развития духовного образования, исходя из практической значимости его современного развития в обществе.

**Ключевые слова:** общество, духовность, развитие, стратегия, национальная, религиозная, образовательная, ценность, молодежь, идея, развитие, перспектива, проблема, научные исследования.

**KIRISH.** Jamiyatning ma'naviy rivojlanish strategiyasida muayyan davr va jamiyatga xos belgilar, davlat siyosati bilan bog'liq xilma-xil xususiyatlar va inson kamoloti bilan bog'liq turlicha namoyon bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy jihatlar, aholi, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyati ham muhim o'rinnegallaydi. Bunday belgilar va o'ziga xos jihatlar ushbu masalalarga doir tushunchalarning turli xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadigan falsafiy tamoyillar uchun umumiy mezon va tayanch omillar bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda, jamiyatning ma'naviy hayoti har bir yosh inson uchun doimo muayyan an'analar va odatlar shakllanadigan hamda qaror topadigan poydevor, ya'ni mentalitet omillar bilan tavsiflanadi. Ushbu omillar jamiyatning an'analari tizimiga kiruvchi ijtimoiy ko'rsatmalar, xatti-harakat me'yordi, ong harakati va stereotiplarini belgilab beradi. Shu tarzda an'analar milliy mentalitetni saqlab turish va yetkazib berish mexanizmi sifatida yuzaga chiqadi, jamiyatning ma'naviy asoslarini kelajakka yetkazib beruvchi bo'g'inni tashkil qiladi. Binobarin, jamiyat rivoji hamda yosh avlod kamolotidagi uzluksizlik an'analar va urf-odatlar davomiyligi bilan ham ta'minlanadi. "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliv o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifikat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi"[1].

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHЛИLI.** "Muayyan davrda yoki biror bir davlatda yashayotgan har qanday kishi, ayniqsa, yoshlar umumiy qonun-qoidalar, tartiblar va talablar bilan birga, o'zi yashayotgan jamiyatning ma'naviy taraqqiyot mezonlarini anglash va o'z faoliyatini uning umumiy mezonlariga uyg'unlashtirishda ushbu jihatlarga e'tibor qaratadi va ular bilan bog'liq

talablarga rioya qiladi. Bu esa, o'z navbatida, har qanday jamiyatni isloh qilishda ma'naviy qadriyatlarning o'rni va ahamiyatiga alohida ahamiyat berish zarurligini anglatadi"[2].

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy falsafa uchun hamma zamonlarda ham jamiyatning umumiy rivojiga, davrning aniq voqe-a-hodisalariga, aholi qatlamlari, ijtimoiy guruhlarning qanday munosabatda bo'layotgani muhim. Shu asosda jamiyat taraqqiyoti, uning ma'naviy makoni o'rganiladi va tahlil etiladi. Bu jihatdan, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti masalasi ham zamonaviy falsafiy fanlarning muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Har qanday jamiyat hayoti va faoliyatida moddiy, ma'naviy, falsafiy, ijtimoiy sohalar muhim o'rinnegallaydi. Ayni paytda, jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy sohalarini, bir butunlikda ekanini unutmaslik zarur. Ushbu zaruriyat mazkur sohalarning muqarrar ravishda falsafiy omillar bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'lishini, jamiyatning falsafiy va ma'naviy tomonlarini bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa zid ekanini anglatadi.

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Albatta, bunda ham ijtimoiy-ma'naviy hayot alohida mazmunga ega, u bir vaqtning o'zida insonning o'zi tomonidan yaratilgan infratuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Bunda ham ushbu tushunchada xalqning turmushi va madaniyati aks etadi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muayyan tarixiy davrga xos jihatlari o'z ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan va insoniy dunyoda muttasil jamlanib boradigan ma'naviy sohaning ijtimoiy-falsafiy modelida barcha ma'naviy jihatlar o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Aynan ana shu bog'liqlik kishilarni ijtimoiylashtirishga, ularni tarbiyalashga, ya'ni davlatning ma'rifikatga, ta'limga qaratilgan faoliyat tamoyillari hamda jamiyatning turmush tarzi va ma'naviy qiyofasini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ta'kidlash kerakki, uyg'unlik g'oyasi faqat moddiy va ma'naviy soha masalasiga taalluqli emas. Bu g'oya butun jamiyatni, uni tashkil etadigan

ijtimoiy-falsafiy munosabatlarni demokratik asosda isloh etish, mustaqil taraqqiyot yo‘lini ta’minlashni ko‘zda tutadigan rivojlanishning butun ma’no-mazmuniqa daxldordir. Bu jihatdan olganda, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarini rivojlantirish jarayonini izchillik bilan yangi bosqichga ko‘tarish uchun olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish – bu sohadagi ma’naviy o‘zgarishlarni belgilaydigan asosiy omillardir.

Ushbu omillar orasidagi munosabatlarni takomillashtirishda moddiy soha ahamiyatini haddan tashqari bo‘rttirish, moddiy va ma’naviy sohani bir-biridan ajratish, ulardan birini muhimroq, boshqasini nomuhim, deb hisoblash nafaqat nazariya, balki amaliyotda ham muayyan xatolarga olib keladi. Har qanday sharoitda ham jamiyatdagi moddiy farovonlikni ta’minlash uchun aholining ma’naviy-intellektual salohiyatini kuchaytirish bilan bog‘liq faoliyatga alohida ahamiyat qaratilishi lozim. Bu esa, jamiyat ma’naviy hayotining falsafiy jarayonlar bilan bog‘liqligini anglatadi hamda bu boradagi faoliyat ta’sirchanligini oshiradi. Ushbu jihat jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish va taqsimlash, uning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mazmun-mohiyatini belgilaydi. Albatta, Forobiy yashagan davrda mavjud bo‘lgan jamiyat ma’naviy makoni o‘ziga xos edi. Ammo, o’sha davrda ham inson, xalq va millat ma’naviyati jamiyat hayotiga, o‘sha zamon siyosatiga bog‘liq bo‘lgani, shubhasiz.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Jamiyat rivojlanishiga sivilizatsiyali yondashuv g‘oyasi ilgari surilayotgan bugungi kunda ijtimoiy-falsafiy jihatdan har bir xalq o‘zining betakror, o‘ziga xos va o‘ziga mos tomonlarini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlarning tajribalaridan foydalanish orqali taraqqiy etish huquqiga egaligi butun dunyoda tan olingan. Ana shu tamoyil hozirgi davrdagi ko‘plab mamlakatlarning ijtimoiy sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda namoyon bo‘lmoqda. Jahon xalqlarining bu boradagi tajribasi jamiyat barqarorligi, tinch-totuvligini ta’minlashda ijtimoiy sohaga ko‘proq e’tibor berish, ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash muhim. Shu sababdan ham mustaqillik yillarida mamlakatimiz yalpi ichki daromadining

katta qismi shu sohaga sarflana boshladi va bu o‘zining samaradorligini ko‘rsatdi.

Mazmuniga ko‘ra diniy, dunyoviy, ilg‘or, zamonaviy va konservativ turlariga bo‘linadigan axloq tarbiyalarning barchasi “ma’naviy hayot” tushunchasi tarkibiga kiradi hamda jamiyatning ma’naviy makonida muhim.

Jamiyatning barcha sohalaridagi islohotlarning yangi bosqichga ko‘tarilayotgani ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar va amaliy faoliyatda aks etmoqda. Ma’naviy hayotdagi chuqur o‘zgarishlar bilan yo‘g‘rilgan davr ruhi amalga oshirilayotgan izchil islohotlar bilan uyg‘unlashib, muhim sifatiy yangilanishlarga sabab bo‘lmoqda.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Jamiyatning ma’naviy hayoti va ijtimoiy voqelikning yoshlar kamoloti jarayoni bilan aloqadorligi ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtirish vositasida namoyon bo‘ladi va bu bosqichma-bosqich yuz beradi. Jamiyat a’zolari, ayniqsa yoshlar ongida u oldingi tajriba orqali kelajakni farqlashni o‘z ichiga olgan tadrijiy tartibda amalga oshadi.

Ayni paytda, ma’naviy hayotda turli xil qatlamlar, ijtimoiy birliklarning voqelik, qonunlar va ularning amal qilish qoidalari, qadriyatları to‘g‘risidagi tasavvurlar ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, uzoq yillar shakllangan va turli avlodlar tomonidan qadrlanib kelinadigan an’analari, amaliyotda mavjud bo‘lgan g‘oyalar va konsepsiylar ham ma’naviy hayotga ta’sir ko‘rsatadi. Ilg‘or mamlakatlar qatoriga yetish uchun bu sohada o‘qish, bilim olish, komil inson bo‘lish uchun, ma’naviy taraqqiyot dialektikasi va barkamol avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy mezonlarini yosh avlodga singdirish yangilanayotgan O‘zbekistonning poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Adabiyyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2021.-B.457.
2. Shopo‘latov A. Jamiyatni isloh qilishda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni //Milliy g‘oya-bizning g‘oya (Matn).-Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2016.-B.54-56. 3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati.-Toshkent: G.G‘ulom nomidagi NMIU, 2010.-B.337.